

**BOSHLANĠICH TA'LIMNI OSHIRISH UCHUN QÒYILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR**

**Nabiyeva Gavhar Kamol qizi**

Qarshi Xalqaro universiteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Bu maqolani yozilishidan maqsad ,boshlangich ta'limni zamonaviy usullar yordamida rivojlantirib borishda,boshlangich ta'lim o'qituvchisi va o'quvchilarining o'rnini haqida yoritilib berishdan iborat.

**Kalit so'zlari:** Zamonaviy ta'lim, boshlangich ta'lim,konikma,tafakkur,o'qituvchi, o'quvchi,zamonaviy yondashuv,bilim.

**Аннотация:** Цель написания этой.статьипролить свет на роль учителей и учащихся начальных классов.в развитии начального образования с использованием современных методов.

**Ключевые слова:** Современное образование,начальное образование, мылиилеие,учитель,ученик,технология,разум,образование.современный подход,знание.

**Annotation:** The purpose of writing this article is to shed light on the role of primary education teachers and students in developing primary education using modern methods.

**Keywords:** Modern,education.primary education,thinking .teacher student,tecnology.consciousness,education modern approach.

Bizda yosh avlod tarbiyasi,uning o'z-axloqi,ma'naviyati,aqliy kamoloti,unga komil insonga xos barcha sifatlarining shakllantirishda ta'lim -tarbiyamiz oldidagi eng muhim masala bo'lib kelgan va hozirda ham shunday.Ayniqsa,tarbiya jarayonida boy milliy qadriyatlarimizning yoshlar ongiga singdirish bu borada avlod -ajdodlarimiz foydalanish bugungikunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida Hukumatning tegishli vazirlik va idoralari hamda butun talim-tizimining hurmatli domlalarimiz va professor ,o'qituvchilarning eng muhim vazidasi-yosh avlodga puxta ta'lim berish,ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir"degan fikrlari ham tarbiyaga katta e'tibor qarvtilayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir -biridan murakkab va muhim masalalarni hal.qilish haqida o'ylar ekanmiz,ularning yechimi aynan ta'lim-tarbiya bilan,yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim,yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekanigayana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Boshlangich ta'lim barcha ta'limning asosiy poydevori hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi ,bolaning o'qishga bo'lgan o'qish savodxonligi,turli ma'lumotlar,bilan ishlash ,ularni kundalik hayotda qo'llay olish,mantiqiy va ijodiy fikrlash ,o'z-o'zini boshqarish ,jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot ma'daniyati qoidalarini ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi konikmalarni shakllantirishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini, o'quv jarayonida keng qo'llashga bòlgan qiziqish, e'ribor kundan- kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bòlsa, boshlang'ich ta'limda ,zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga ,hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'quvchi -bu jarayonda shaxsning rivojlanishi ,shaklanishi ,bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Ma'lumki ta'lim -tarbiya uzluksiz ,muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayon bòlib. unda barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Demak, pedagog jarayonning asosiy maqsadi barkamol inson shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Zamonaviy ta'limning emg muhim usullari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'lim maqsadi ,mazmuni, shakl uslub va vositalari ta'lim. jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar ma'lum predmet mutaxassislik yoki ixtisoslik bòyicha o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi-boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh ,psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganadi. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'qituvchi shaxsida namoyon bòlishi zarur bòlgan sifatlarni quyidagicha turkumlashtirish mumkin:

1. Kasbiy sifatlari.
2. Tashkilotchilik sifatlari .
3. O'quvchilar jamoasiga rahbarlik sifatlari.
4. Muloqatga kirishuvchanlik sifatlari.
5. Boshqaruvchanlik sifatlari.
6. Ish yurita olish sifatlari.
7. Ijodiy faoliyatini tashkil eta olish sifatlari.
8. Voqelikni to'g'ri baholay olish sifatlari.
9. Tadqiqotchilik sifatlari.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchilar tomonidan pedagogik texnologiya nazariyasi, uning mohiyati, ta'lim -tarbiya jarayonini loyihalash, malakalari darajasini oldindan tasdiqlash, ular tomonidan tashkil etilayotgan o'quv faoliyati samaradorligini anqilash borasidagi nazariy bilimlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bòladi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'qituvchi -o'quv -bilim jarayonining rahbari hisoblanadi. Shu sababdan ,boshlang'ich sinf o'qituvchisi jarayonga to'g'ri rahbarlik qilishi uchun, chuqur bilimga ega bòlishi lozim, o'qituvchi kòp jihatdan o'quvchiga o'rnakdir. Shuning uchun ham u birinchi navbatda bolani o'ziga jalb eta olishi kerak. Yangilanayotgan boshlang'ich ta'lim nazariyasi o'qituvchining shaxsiy sifatlari, kasb maxorati va bilim darajasini diagnostika qilish asoslarini ishlab chiqishi lozim. Tekshirish natijalari asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash va ta'lim amaliyotiga joriy qilish kechiktirib bòlmaydigan vazifalardan biridir. Boshlang'ich maktab yoshidagi

òquvchilarning ta'lim faoliyatini yaxshilashning eng samarali shakli-bu òqituvchining bilimliligi va mahoratida shu sababli avvalo ta'lim sifatini yaxshilashning yòli birinchi navbatda kasbini sevuvchi hamda mahoratli òqituvchi tayyorlashdir. Òqituvchi mahoratli bòlsa va uning har tomonlama barkamol bòlishi talab etiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi Òzbekiston strategiyasi" kitobida shunday sòzlarni ta'kidlab òtgan "Jonajon Vatanimiz Òzbekistonni eng rivojlangan davlatlar, qaroriga olib chiqish sharafliligi va ayni paytda nihoyatda ma'suliyatli vazifa". Biz rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishimiz uchun ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilyapti. Buning dalili sifatida Òzbekiston hududining har bir viloyatida "Prezident maktablari" qurilayotganidir.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonida òquvchilarni rivojlantiruvchi xarakterga ega bòlgan ta'lim tizimii tatbiq qilingan. Unga kichik maktab yoshidagi òquvchilar òz yosh xususiyatlari, tafakkuri hamda ruhiy darajalarini òzlashtirish imkonini beradigan ta'limiy faoliyatga kirishadilar. Kichik maktab yoshidagi bolalarda òqish hamda òrganishga qararilgan faoliyatning shakllanishida har bir òquv predmeti bòyicha nazariy bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi va tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur òz xarakteriga qora nazariy hamda ilmiy tushunchalarni òzlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bòlib, bollarning jadal tarzda taraqqiy etishini, dunyoqarashini rivojlanishini ta'minlaydi. Shu asosga kòra, boshlang'ich ta'limning bosh maqsadi kichik maktab yoshidagi òquvchilarga ta'lim olishga, òrganishga qaratilgan faoliyatni shakllantirish va shu asosida ularni tarbiyalash hamda shaxsiy imkoniyatlarni ròyobga chiqarishdan iborat. Kichik maktab yoshidagi òquvchilarning rivojlanishida òyin, sport, ijodiy faoliyat ham muhim òrin tutadi. Lekin òqish, òrganish ya'ni ta'limiy faoliyat boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsadga bolani mujassam rivojlantirish maqsadiga yònaltirishi lozim.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yònaloshlardan biri bu shaxsning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlantirishdan iboratdir. Òquvchilarda har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashda yònaltirilgan tarbiya jarayonidir. Bugungi kunda òzida ta'lim va tarbiya elementlarini mujassallashtirilgan bosh ta'lim jarayonini tashkil etish dolzarb mavzulardan biridir. Kichik maktab yoshidagi òquvchilarni òqitish va ulardan milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yòli amaliy jihatdan, tatbiq qilinishi lozim. Bunda òquv material shaklida berilgan ta'limiy matnlarda òquvchilarda turli shakllarda axloqiy - ma'naviy tarbiya va milliy nafosat meyorlarini, diniy hamda umuminsoniy qadriyatlarini singdirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili va matematika ta'limining ahamiyati beqiyosdir.

Xulasa zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yònaloshlaridan biri bu - òquvchilarning yetuk shaxs sifatida rivojlanishi hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosidan iboratdir. Zamonaviy ta'limning òrni Òzbekiston yoshlarining kelajagidir.

## **Foydalanilgan adabiyatlar ròyxati.**

1. Sh. M. Mirziyoyev. "Yangi Òzbekiston strategiyasi".
2. Paxriddinov. Sh. Global axborot jamiyati va media ta'limi.
3. Ishmuhammedov. K. J. Yòldoshev. MA "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Nihol 2013.

---

4. Qurbonova Maftuna "Umumiy òrta.ta'lim maktablari boshlang'ich sinf òquvchilarining òquv bilish kompetensiyalarini shakllantirish ahamiyati". Xalq ta'limi.